



O'ZBEK VA CHET EL BOLALAR ADABIYOTI ASARLARI VA ULARDAGI OBRAZLARNI CHOG'ISHTIRISH

Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi

FarDU, Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola bolalar adabiyoti namunalari haqida bo'lib, unda o'zbek va chet el bolalar adabiyotida berilgan ertaklar hamda obrazlarni o'zaro qiyoslash, o'xshash va farqli jihatlari chog'ishtirilgan. Ertaklar bolalarga qanday ta'sir qilishi va ular uchun ahamiyatli to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Chog'ishtirish, qiyoslash, ertak, chet el bolalar adabiyoti, o'zbek bolalar adabiyoti, „Zumrad va Qimmat“ ertagi, Zolushka, obraz, qahramon, ijobiy xarakter, salbiy xarakter.*

Qiyosiy adabiyot yoki qiyosiy adabiyotshunoslik ikki yoki undan ortiq adabiy hodisalarni solishtirishga asoslangan fan sohasidir. Xalqaro ijtimoiy, madaniy va adabiy aloqalar kundan-kun rivojlanib borayotgan hozirgi kunda qiyosiy adabiyotning kelajagi fanning buyuk yo'nalishlaridan biridir. Har qanday qiyosiy tadqiqotda adabiy hodisalarning umumiyligi va o'ziga xos tomonlari aniqlanadi, ular adabiyotlar o'rtasida umumiyligi nazariy qonuniyatlarning paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, adabiy hodisalar (tasviriy vositalar, badiiy asar, yozuvchilarining adabiy merosi, adabiy maktablar, janrlar)ning tipologik va genetik mohiyatini aniqlash, tarixiy fenomen yoki konkret-tarixiy shartlanganligini hisobga olmasdan, adabiy fakt sifatida adabiy hodisaga tegishli bo'lgan ichki qonuniyatlarini namoyon qilishdan iborat.

Qiyosiy-tarixiy metod va uning asoschilari, asosiy tushunchalari; Sharq va G'arb adabiy aloqalari, tarjima tanqidi, badiiy matnning qiyosiy tahlili mezonlari kabilalar haqida nazariy bilim berish va tadqiqotchilarda adabiy hodisalarni qiyoslash va chog'ishtirish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Qiyoslash metodologiyasida qiyosiy-tarixiy va chog'ishtirish (yoki qiyosiy-chog'ishtiruv) metodi eng asosiy metodlardan hisoblanadi. Bu metodlar mohiyatan bir-biriga yaqin, ammo farq qiladi. Qiyosiy-tarixiy metod adabiy hodisalarning umumiyligi va xos tomonlarini tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog'liqlikda qiyoslash usulidir. Qiyosiy-tarixiy metod asosidagi ilk nazariy fikrlar Arastuning "Poetika" asarida bayon qilingan. Faylasuf adabiyotni epos, lirika, drama kabi uch turga ajratish jarayonida ularni qiyoslaydi va mohiyatini tushuntirib beradi. Qiyosiy-tarixiy metod haqida ilmiy adabiyotlarda juda ko'plab nazariy fikrlar bayon qilingan. Jumladan, adabiyotshunos B.Karimov qiyosiy-tarixiy metoddan foydalananib, quyidagi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot olib borish mumkinligini ta'kidlaydi:

- dunyo adabiyoti durdonalari yoki milliy adabiyotning go'zal namunalari o'zaro qiyoslanadi;
- adabiy asarlar yaratilgan davriga ko'ra taqqoslab o'rganiladi;



- bir milliy adabiyot vakillarining qiyos uchun asoslari o'rganiladi;
- milliy adabiyot namunalari dunyo adabiyoti kontekstida tekshiriladi;
- adabiy jarayon yoki adabiyot tarixida mavjud adabiy hodisalarning farqli va o'xshash qirralari tadqiq qilinadi;
- mavzu yoki ilmiy muammo nuqtai nazaridan o'zaro yaqin bo'lgan adiblarning asarlari tekshiriladi;
- adabiy-estetik evolyutsiyani kuzatishda ma'lum bir adib tomonidan yozilgan asarlar obyekt qilib olinadi.

Qiyosiy-tarixiy metodning nazariy asoslari A. N. Veselovskiy, V. M. Jirmunskiy, N. I. Konrad, A. Dima, A. Dyurishin, V. R. Amineva kabi olimlar tomonidan juda yaxshi yoritilgan. Chog'ishtirish metodi — filologik hodisalarni tizimli qiyoslashga asoslangan metod bo'lib, asosan farqli xususiyatlarni ochib berishga qaratilgan metoddir. Shuning uchun ham tilshunoslikda boshqacha nomi kontrastiv metod deb ataladi. Garchi nazariy asoslari ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, antik davrlardan boshlab turli xil filologik hodisalarni chog'ishtirishga qaratilgan asarlar yaratilgan. Alisher Navoiyning fors va turkiy tillar muhokamasiga qaratilgan "Muhokamatu-l-lug'atayn" asari chog'ishtirish metodining yorqin namunasidir. Tilshunos olim R.Rasulov ilmiy xulosalariga ko'ra, chog'ishtirish metodi ikki va undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo'lmanan tillarni, til hodisalarini o'zaro qiyolash usuli bo'lib, ushbu xususiyatga ko'ra faqat qarindosh tillarni taqqoslab, qiyoslab o'rganadigan qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli ravishda, chog'ishtirilayotgan tillarning tarixiga, ularning kelib chiqishiga — genetik jihatlariga, taraqqiyotiga e'tibor bermaydi, ularga asoslanmaydi. Agar yuqoridaq nazariy fikrlarni adabiyotga tatbiq qilsak, tahlil bir millat yoki bir hudud adabiyoti doirasida olib borilsa, adabiy hodisalarning genetik jihatlariga e'tibor qaratilsa, bunda qiyosiy-tarixiy metoddan (mas., o'zbek mumtoz adabiyotida ramzlar qiyosi), turli millatga mansub adabiyotlar tadqiqi va tahlili asosida (mas., rus va o'zbek, ingliz va ispan) u yoki bu adabiy hodisalarning spesifik xususiyatlari ochib berilsa, chog'ishtirma metoddan foydalilanildi.

Yuqorida berilgan ma'lumotlarga tayangan holda badiiy asarlarni yoki tillarni davrlar bo'yicha hamda davlatlar bo'yicha qiyoslanganini bilishimiz mumkin. Ammo bolalar adabiyoti asarlarini va ulardag'i personajlarni o'zaro taqqoslangani haqida ma'lumotlarga ega emasmiz. Bu tadqiqotda ozbek va chet el bolalar adabiyotidan ertaklar janriga alohida e'tibor qaratgan holda ulardag'i o'zaro mazmunan o'xshashliklar, personajlarning mos va farqli tomonlarini o'rganib chiqamiz.



Nº	Davlat nomi	Nomlanishi
1	O'zbekiston	Ertak
2	Ozarbaydjon	Nag'il
3	Amerika	fairy tale
4	Qozog'iston	ертек
5	Rossiya	сказка
6	Germaniya	Märchen
7	Qirg'iziston	жомок
8	Tojikiston	афсона
9	Saudiya Arabiston	hikayat khayalia
10	Ispaniya	cuento de hadas
11	Turkiya	masal

Bolalar adabiyotida bolalar uchun eng sevimli janrlardan biri bo'lgan ertaklar har bir xalq va millatning yosh avlodni hayotga va mehnatga tayyorlashning ilk bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Dunyo bo'yicha nechta xalq yashasa har bir xalqning ertagi va afsonasi bor va har birining maqsadi hamda vazifasi ham bir biriga o'xshash va mosdir. Masalan o'zbek xalq milliy ertaklaridan "Zumrad va Qimmat" ni olaylik. Undagi portret, obrazlar va asar mazmuni haqida eshitmagan va bilmagan inson kam bo'lsa kerak. Bizda mavjud bo'lgan Zumrad va Qimmat ertagiga o'xshash va o'zaro mazmun jihatidan uyg'un bo'lgan chet el bolalar adabiyotiga nazar tashlaymiz.

Zolushka- fransuz bolalar adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri bo'lgan Sharl Pero qalamiga mansub bo'lib, bugungi kunda uning syujeti ko'plab filmlar va multfilmlarning asosini tashkil etadi. Bu asarni o'zbek xalq ertagi Zumrad va Qimmat bilan Venn diagrammasi orqali o'zaro qiyoslaymiz. Ushbu qiyoslash davomida obrazlarning ijobiliy va salbiy qahramonlarga ajratib chiqamiz.

Ijobiy obrazlar		Salbiy obrazlar	
Zumrad	Zolushka	Qimmatning onasi	O'gay ona
Zumradning otasi	Zolushkaning otasi	Qimmat	O'gay onaning qizlari
Sehrgar kampir	Sehrgar farishta		

	Shahzoda
--	----------



Yuqorida berilgan jadvalda ikki xalqning o'zbek va fransuz millatiga tegishli bo'lgan ertaklar va ularning qahramonlari bilan tanishdik. Ushbu obrazlar xususiyatlarni ham ko'rib chiqamiz. Zumrad va Qimmat ertagi qahramonlarining xarakter xususiyatlari quyidagicha:

Zumrad	Aqli, mehribon, mehnatkash, shirinso'z, kamtar, sahiy, sabrli
Zumradning otasi	Mehribon, oqko'ngil, sabrli, mehnatkash
Sehrgar kampir	Oqko'ngil, shirinso'z, mehribon, sahiy, shirinso'z
Qimmatning onasi	Ochko'z, ko'ngli qora, shafqatsiz, dangasa, berahm, ayyor, makkor
Qimmat	Dangasa, uyquchi, ayyor, erka, tantiq, odobsiz

Zolushka ertagi qahramonlarining xarakter xususiyatlari quyidagicha:

Zolushka	Aqli, mehribon, mehnatkash, shirinso'z, kamtar, sahiy, sabrli
Zolushkaning otasi	Mehribon, oqko'ngil, sabrli, mehnatkash
O'gay ona	Ochko'z, ko'ngli qora, shafqatsiz, dangasa, berahm, ayyor, makkor
O'gay onaning qizlari	Dangasa, uyquchi, ayyor, erka, tantiq, odobsiz
Sehrgar farishta	Oqko'ngil, shirinso'z, mehribon, sahiy, shirinso'z
Shahzoda	Aqli, ko'rkar, kuchli, e'tiborli,

Ushbu ikki ertak ham bolalar uchun juda qiziqarli bo'lib, bolalarga tarbiya berish hamda har qanday vaziyatda ham yaxshi inson bo'lishga yo'naltirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek ijobjiy qahramonlarning hayoti qanday boshlanib, yakun topishini, salbiy obrazlarning hayoti qanday yakun topishi haqida bilib olishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytmoqchimanki ertaklardagi obrazlarning bolalarga kuchli ta'siri ularning kelajakka umid bilan qarashlari, hayotning asl mohiyatini tushunishlari, jamiki yomonliklardan qochib, yaxshilik tomon intilishlari uchun xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Izzat S. Adabiyot nazariyasi- Toshkent: O'qituvchi, 2005
- 2.Ibragimov I. Hayvonot olamiga sayohat- Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti,2018
- 3.Qosimova K, Matchonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.- Toshkent: O'qituvchi, 2009
- 4.Xrapchenko M. B., Gorizonti xudojestvennogo obraza.